



MULTIMEDIALI ZAMONAVIY O‘QITISH VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK JIHATLARI

Abdurahmonova D.Sh.

Andijon davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: multimedia, o‘qitish vositalari, axborot, kompyuter, modernizatsiya, texnologiya, elektron darslik, elektron ma’ruza, raqamlashtirish.

Ключевые слова: мультимедиа, средства обучения, информация, компьютер, модернизация, технологии, электронный учебник, электронная лекция, цифровизация.

Key words: multimedia, teaching aids, information, computer, modernization, technology, electronic textbook, electronic lecture, digitalization.

Umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishning mediadididaktik ta’minotini tokomillashtirishda samarali mexanizmlarni joriy etish – o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashadi.

Umumta’lim maktablarida multimedial elektron vositalaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish orqali o‘quvchilarning tayanch kompetentsiyalarini rivojlantirish ta’lim texnologiyalari, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini takomillashtirishga erishiladi. Multimedial elektron vositalari o‘quvchilarning qo‘plab qobiliyatlarini, shu jumladan, ixtirochilik sifatleri va intellektual salohiyatini rivojlantirishda funktsional imkoniyatlar yaratiladi. Ta’limda multimedial elektron vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning katta hajmdagi axborotlar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirib boradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiya imkoniyatlari ushbu muammoni avtomatlashgan o‘quv-axborot tizimlari, bilimlar banki va ma’lumotlar banklari vositasida oson va samarali hal qilish imkoniyatini yaratadi.

O‘quv jarayonida multimedial elektron vositalarini qo‘llash ta’lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o‘qituvchi faoliyatining ijobiy o‘zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik

tizimlarning tarkibiy o'zgarishiga samarali ta'sir etadi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishga nisbatan muhim vazifalarni belgilab beradi.

Metodik jihatdan ta'lim jarayonida multimediali elektron vositalaridan foydalanishning ahamiyati shundan iboratki, ular ta'limning ixtiyoriy shakliga mos keladi, ular yordamida materialni o'rganishning yangi, noan'anaviy metodlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Multimediali elektron vositalari mustaqil ta'lim olish uchun katta ahamiyatga ega. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida multimediali elektron vositalari asosida mustaqil ta'limni tashkil etilishi o'quvchilar uchun ta'limiy va rivojlanish imkoniyatlarni taqdim etib, o'quvchilarning o'quv fanlari bo'yicha hamda media sohasida bilimlarini oshirish, mediamakonini o'zlashtirish madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shish, shuningdek ijtimoiy faollikni rivojlantirishga imkon beradi. Mediaresurslar asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim o'quvchilar individualligini, kognitiv mustaqilligini, analitik qobiliyatini, mediaidrok etishni, mediamatnlarni talqin qilish hamda taqqoslash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchi ixtiyoriy vaqtda va ixtiyoriy joyda multimediali elektron vositalari vositasida ta'lim oladi hamda amaliy topshiriqlar va loyihaviy vazifalarni bajarish orqali axborot – media va raqamli kompetentsiyalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Umumiy holatda ularda mediamadaniyat rivojlanib boradi. Shu jihatdan olib qaraganda mustaqil ta'limni tashkil etish hamda multimediali elektron vositalaridan oqilona foydalanish pedagogik zarurat hisoblanadi

Respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning media-didaktik ta'minotini takomillashtirishda axborot texnologiyalari, apparat-dasturiy vositalarni intellektual boshqarish tizimlaridan keng foydalanilmoqda. Buning asosida elektron axborot resurslarining bilimlar bazasini shakllantirishda milliy kontentni yaratish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. O'quvchilarning kompyuter savodxonligini, darslarda ijodkorligini, ilmiy yechimlarni izlashga qodir, mustaqil fikrlay oladigan, o'z nuqtayi nazarini bayon qiladigan, individual yondashuv orqali didaktik ta'minot vositasida muhim xulosalar chiqara oladigan o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayoni uchun shart-sharoitlar yaratish zarur.

Ma'lumki, multimediali zamonaviy o'qitish vositalari tizimlashtirilgan nazariy bilimlarni o'zida saqlaydi, o'quvchilarda fanga doir tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish maqsadida ular tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ta'lim dasturlarida ko'rsatilgan faoliyat turlarini belgilab beradi.

O'quv-metodik multimediali zamonaviy o'qitish vositalari o'quv fanini mustaqil o'rganish uchun tartiblangan o'quv materialini, interaktiv shaklda bayon etilgan bilimlarni mustahkamlashning amaliy shakllari va metodikasini



o'z ichiga oladi. Quyida multimediali elektron vositalarning ayrimlari xususida fikr yuritiladi.

Multimediali elektron o'quv qo'llanmalar o'quvchilarning o'rganish jarayonini individuallashtirishni kuchaytirish imkonini beradi. Shuningdek, har bir o'quvchi o'ziga qulay sur'atda ishlaydi, zarur bo'lganda tayanch o'quv materialiga qaytishi mumkin bo'ladi. Multimediali elektron o'quv qo'llanmadan foydalanish tezkor qaytar aloqani, o'z-o'zini boshqarishni, o'z-o'zini nazorat qilish va o'quv faoliyatini korreksiyalashni ta'minlaydi, bosqichma-bosqich o'quv faoliyatini boshqarishni amalga oshirish va optimal konstruksiyalangan algoritmlar asosida uni shakllantirishni ta'minlaydi.

Multimedia texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etishda ma'ruza darslariga alohida e'tibor beriladi va bu o'qitish metodi muhim o'qitish shakllaridan hisoblanadi". Multimediali elektron ma'ruzalar davlat ta'lim standartlari talablari asosida muayyan fan va sinf o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, o'rganilayotgan fan bo'limlarining o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi hamda tekshirish topshiriqlari, mashqlar va testlarning ko'p variantlilik, ko'p darajalilik, turli-tumanligini ta'minlaydi. Pedagogik amaliyotda multimediali elektron ma'ruzalardan yuqori sinflar uchun qo'llaniladi.

Jahonda axborot rivojlanishining dinamikasi ijtimoiy institut sifatida ta'limga yangi va yuqori talablarni qo'yadi. Bu esa umumta'lim maktabi o'quvchilarini tezkor va o'zgaruvchan dunyoda o'qitish, rivojlantirish va tarbiyalashni ta'minlash, o'quvchilarning yaxlit dunyoqarashi va munosabati, funktsional savodxonligi hamda ijodiy mahoratini shakllantirish zaruratini shakllantiradi.[]

Ta'limni modernizatsiyalash umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonini an'anaviy tarkib topgan mashg'ulotlarni o'qitishning faol shakllariga yo'naltirishni hamda umumta'lim maktablarida o'qitishning yangi shakl va vositalarini yaratishni shart qilib qo'ymoqda. Multimediali zamonaviy o'qitish vositalari ana shunday vositalardan biridir.

Multimediali zamonaviy o'qitish vositasi bu – aniq ta'limiy masalalarni hal etish uchun turli xil axborotlar (videoma'ruza, maxsus videoroliklar, audiomateriallar va boshqalar) teng huquqli va o'zaro bog'liq holda ishtirok etadigan o'quv, mustaqil, yangilanadigan, interaktiv nashrni o'z ichiga olgan tayyorgarlikning axborot-metodik vositasi.[]

Multimediali elektron ma'ruzalar davlat ta'lim standartlari talablari asosida muayyan fan va sinf o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, o'rganilayotgan fan bo'limlarining o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi hamda tekshirish topshiriqlari, mashqlar va testlarning ko'p variantlilik, ko'p darajalilik, turli-tumanligini ta'minlaydi. Pedagogik amaliyotda multimediali elektron ma'ruzalardan yuqori sinflar uchun qo'llaniladi.

Multimediali elektron ma'ruzalardan yangi mavzuni o'rganishda, o'quvchilarning oldingi mavzular bo'yicha bilimini tekshirish, yangi materialni bayon etish bilan birga olib boriladigan aralash mashg'ulotda ham foydalanish mumkin. Multimediali elektron ma'ruzaning qulayligi sifatida aniq, mavjud hamda ixcham, isbotlangan monologik bayon etish nazarda tutiladi. Multimediali elektron ma'ruzalar nisbatan qisqa vaqtda hajm bo'yicha katta o'quv materialini taqdim etish imkonini beradi, uni uzatishning tizimlilik tufayli o'quvchilarda o'rganilayotgan hodisa yoki obyekt haqida yaxlit tasavvur hosil bo'ladi. Multimediali elektron ma'ruzalarga grafik illyustratsiyalarni kiritish auditoriyaning faolligini oshiradi va hissiy javob reaksiyasini kuchaytiradi, o'quvchining o'quv mazmuniga qiziqishini qo'llab-quvvatlaydi.

Umumta'lim maktablari o'quv jarayonida tizimli, yaxlit grafikli, matnli, raqamli, nutqli, musiqali, video, foto va boshqa axborotlar magnit va optik tashuvchilarga joylashtirilgan, shuningdek, kompyuter tarmog'ida chop etilgan elektron nashrlar faol qo'llanilib kelinmoqda.

Bugungi kunda bunday elektron nashrlarning quyidagi turlari farqlanadi:

bosma ekvivalentli mavjudligi bo'yicha: bosma nashr, mustaqil nashr;

asosiy axborot tabiati bo'yicha: matnli, tasvirli, tovushli, multimediali nashr, dasturiy mahsulot;

maqsadi bo'yicha: rasmiy, ilmiy, ilmiy-ommabop, me'yoriy, o'quv, badiiy nashr;

tarqalish texnologiyasi bo'yicha: lokal, tarmoqli va aralash nashr;

foydalanish va o'zaro ta'sirlashuvi bo'yicha: interaktiv va interaktiv bo'lmagan;

davriyligi bo'yicha: davriy, serialli, davom etuvchi, yangilanadigan;

tuzilishi bo'yicha: bir tomli, ko'p tomli nashr, elektron serialli. []

Quyida multimediali zamonaviy o'qitish vositalarining yuqorida keltirilgan tip va ko'rinishlarini umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonini media-didaktik ta'minoti vositasi sifatida qarab chiqiladi.

Multimediali zamonaviy o'qitish vositalari tizimlashtirilgan nazariy bilimlarni o'zida saqlaydi, o'quvchilarda fanga doir tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish maqsadida ular tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ta'lim dasturlarida ko'rsatilgan faoliyat turlarini belgilab beradi va quyidagi motivatsiyalarni rivojlantirishga imkon beradi:

maqsadli ("men buni bilishim kerak, bu topshiriq va mashqlarni bajara olishim kerak");

kognitiv ("men yangi bilimlarni olyapman va ularning shakllanish jarayonida ishtirok etyapman");

praksiologik ("men ham yangi bilimlarni olishdan, ham yangi o'quv materiallarini o'rganish jarayonidan qoniqish his qilyapman");



attitudnli (“menga o‘qish qiziqarli”);

interaktiv veb-elementlar, giperilovalarni joylashtirish elektron kutubxonalar yoki ta’limiy saytlardagi qo‘shimcha adabiyotlar bilan giperaloqa o‘rnatish orqali o‘quv materialini o‘rganishning nohozirlikini ta’minlash;

o‘quv materialini o‘rganish uchun sarflanadigan vaqt va natijaning tizimli monitoringini olib borish va har bir o‘quvchi bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yaratish orqali tejash. Bu o‘qitish jarayoni dinamikasi va qonuniyatini aniqlash hamda uni tashkil etish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni soddalashtirish imkoniyatini beradi.

Pedagogik amaliyotda quyidagi multimediali zamonaviy o‘qitish vositalari keng qo‘llaniladi:

multimediali elektron o‘quv adabiyotlari;

multimediali elektron darslik;

multimediali elektron o‘quv qo‘llanma;

multimediali elektron ma’ruzalar;

multimediali elektron masala va mashqlar to‘plami;

multimediali elektron xrestomatiyalar;

multimediali elektron albomlar;

multimediali elektron atlaslar;

multimediali elektron uslubiy yo‘riqnoma;

multimediali elektron o‘quv izohli yoki atamalar lug‘atlari.

Quyida umumta’lim maktablari ta’lim-tarbiya jarayonida keng qo‘llaniladigan multimediali zamonaviy o‘qitish vositalarining didaktik jihatlari tahlili keltirilgan.

Ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash vazifasi ham bevosita o‘qituvchidan ijodkorona faoliyatni, qolaversa, ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan soha bilimlarini egallashga jalb etadi. Texnologiya bu shaxsni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o‘zida jo qilgan va yakuniy natijani ta’minlaydigan pedagogik faoliyatdir. Texnologiya tushunchasi regulativ ta’sir kuchiga ega bo‘lib, nazariyachi olimlar va o‘qituvchilarni yangicha tafakkur, erkin ijod qilishga undaydi.

Multimediali elektron o‘quv adabiyotlari barcha turdagi o‘quv adabiyotlari kabi umumta’lim fan asoslarining real hayot, kundalik turmush bilan o‘zaro bog‘lanishini amalga oshirishi hamda hozirgi zamon, tabiat va jamiyatning bosh muammolarini o‘quvchilarga etkazishda ko‘maklashishi, ta’limni rivojlantirishi zarur. Raqamlashtirish jarayonlari jadal amalga oshirilayotgan hozirgi vaqtda o‘qituvchilar ham o‘quvchilar kabi o‘z bilimlarini uzluksiz takomillashtirishi va mustaqil bilim berishga o‘quvchilarni tayyorlashlari kerak bo‘ladi. Multimediali elektron o‘quv adabiyotlarida ta’lim standartlarida belgilab berilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni singdirilishi lozim. Shuningdek, u

ma'lum fan sohasidagi bilimlarni berishdan tashqari, o'quvchilarda olamni, tabiat va jamiyatni idrok etishga doir tabiiy, ijtimoiy fanlarga oid tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilishi va lozim hollarda "ko'maklashuvchi vosita" vazifasini o'tashi lozim.

Ta'kidlab o'tilgan talablarga amal qilish uchun o'qituvchilarning ma'lum yoshdagi o'quvchilar bilan ishlash tajribalari nazarda tutiladi hamda ta'limning tarixiy tajribasi hisobga olinadi. Yangi ta'lim mazmuni ilmiy eksperimental tekshirish va natijalarni ekspertlar yordamida baholash yo'li bilan joriy qilinadi.

O'quv adabiyoti quyidagi talablarga javob berishi lozim:

o'quv adabiyoti mazmuni muayyan fan va uning ayrim mavzularini o'rganish uchun dasturda ajratilgan soat miqdoriga mos kelishi;

o'qituvchilar tomonidan tegishli mavzu va bilimlarni o'quvchilarga ongli yetkazilishi;

umumta'lim maktabi o'quv-moddiy bazasiga mos bo'lishi;

ta'lim mazmunini belgilashda xalqaro tajribalar inobatga olinishi zarur.

Jamiyat ehtiyojlarini, o'qituvchilarning hayot tajribasini, fanning ichki mantiqini, o'quvchilarning imkoniyat va qiziqishlarini, o'qitishning metod va tashkiliy shakllarini o'quv adabiyotining mazmunini belgilashda inobatga olish zarur. Unda keltirilgan atamalar, tushunchalarning ta'riflari, qonun-qoidalarning ifodalari, hodisalarning izohlari fanda, amalda qabul qilingan va ommalashgan atamalarga mos bo'lishi lozim.

Barcha multimediali elektron o'quv adabiyotlarilarda fan asoslarining muhim tomonlari, o'qituvchilarning amaliy faoliyatida egallagan bilimlardan muvaffaqiyatli foydalanishga imkon beruvchi dalillar, tushunchalar, qonun va nazariyalar bayon etilishi zarur.

Multimediali elektron o'quv adabiyotlari ta'lim mazmunining zamonaviy fan-texnika va madaniyat yangiliklariga muvofiq takomillashib borishini ta'minlashi lozim. O'quv dasturidagi materiallarni ilmiy bayon etish, eng avvalo, dalillar va ularning mavjud aloqalarini haqqoniy aks ettirish, voqealarni ularning sodir bo'lish va taraqqiy etishi holida olib o'rganish, asosiy tushunchalar, qonunlar va nazariyalarni hozirgi zamon ilm-faniga muvofiq tarzda dalillar yordamida asoslash demakdir. Multimediali elektron o'quv adabiyotlarida o'quv materialini bayon etishda mantiqiy fikrlashning turlicha shakllaridan: taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish, induksiya va deduksiya, mavzu bo'yicha xulosa chiqarish, isbotlashning turli usullaridan keng foydalanish lozim. Materialni bayon etishda induktiv va deduktiv yondashishlar o'rtasidagi mutanosiblikni vujudga keltirish, ayniqsa muhim hisoblanadi.

Multimediali elektron darslik fanga doir tayanch nazariy bilimlarni tizimli bayon etish va ularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi maqsadida hamda



chop etilgan darslik bilan taqqoslaganda tubdan yangi o'quv materiallarini o'z ichiga oladi. Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq, muayyan fan dasturi ta'lim dasturi doirasida aniqlanadi. Elektron darslik tarkibiga interaktiv elementlarning kiritilishi esa ta'lim oluvchilarning kognitiv faoliyatini rag'batlantiradi.

Multimediali elektron darslik o'quvchilarga muloqot shaklda fanni o'rganish imkoniyatini beradi va bunda o'quvchilar bilimlarni savollar berish, turli fikrlarni aytish va boshqa jarayonlarda o'zlashtiradi. Multimediali elektron darslikda taqdim etilgan nazorat testlari esa o'quvchilarga o'zlashtirilayotgan bilimlarni mustaqil tekshirish imkonini beradi. Multimediali elektron o'quv qo'llanma muayyan fan bo'yicha mavjud chop etilgan nashrlarni, to'ldiruvchi nazariy axborotlar majmuasini o'z ichiga oladi. Nazariy axborotlar majmuasi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: matnlar, rasmlar, audio va videomateriallar.

Adabiyotlar:

1. Akinoso, Oyebola. "Effect of the use of multimedia on students performance in secondary school mathematics". *Global Media Journal* 16.30 (2018): 1-8.

2. Djadja V.P. Metod tematiceskogo pogruieniya pri ispolzovanii multimediyux texnologiy v obuchenii matematike. *Matematicheskij vestnik pedvuzov i universitetov Volgo-Vyatskogo regiona*. 8/2006. – 224-229.

3. Kulikova N.Yu., Danilchuk Ye.V. Ispolzovanie multimediyux interaktivnyx sredstv pri obuchenii uchaxixsya shkol. *Izvestiya Volgogradskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta* 10 (143), 2019. – 72-80 st.

4. Nikolskaya I.A., Podvalnaya Ye.V. Ispolzovanie multimediyux texnologiy na obshchobrazovatelnyx urokax v spetsialnyx (korreksionnyx) shkolax. *Izvestiya Yujnogo federalnogo universiteta. Pedagogicheskie nauki* 11/2010. – 234-240.

5. Sadulaeva B.S. "Metodicheskie aspekty ispolzovaniya multimedia na urokax informatiki". *Mir nauki, kultury, obrazovaniya*. 2 (63)/2017. – 259-261.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada umumta'lim maktablari o'quv jarayonida multimediali elektron vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari, elektron nashr turlari, zamonaviy o'quv adabiyotiga qo'yiladigan talablar xususidagi fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются дидактические возможности использования мультимедийных электронных средств в учебном процессе общеобразовательной школы, виды электронных изданий, а также требования, предъявляемые к современной учебной литературе.

SUMMARY

This article discusses the didactic possibilities of using multimedia electronic means in the educational process of a secondary school, types of electronic publications, as well as the requirements for modern educational literature.